

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligida korrupsiyaga qarshi
kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida 2024-yil I yarim yillik
uchun UMUMIY HISOBOT**

**I. Tashkilotning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani
to‘g‘risida umumiy axborot**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 14-fevraldagi 18/2-06-660-son, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 13-martdagi 2/36-4/1-1796-son xatlari asosida Bilim va malakalarni baholash agentligining 2024-yil 7-maydagi 01-281-son buyrug‘i asosida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi vazifasini bajarishga mas’ul xodim tayinlangan.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi vazifasini bajarishga mas’ul xodim uchun zarur sharoitlar yaratilgan, kompyuter va ofis texnikasi ajratilgan, internet va telefon aloqasi mavjud.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” Bilim va malakalarni baholash agentligi rasmiy veb-saytiga joylashtirildi. Jumladan, Bilim va malakalarni baholash agentligining o‘z mablag‘lari hisobiga test sinovlaridagi shaffoflik va inson omilini kamaytirishga xizmat qiluvchi respublikamizning barcha hududlarida katta sig‘imli binolarini barpo etish ishlari davom etmoqda. Bugungi kunda Buxoro, Namangan, Xorazm viloyatlaridagi binolar foydalanishga topshirilib, Qoraqalpogiston Respublikasi, Andijon, Navoiy, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent viloyatlaridagi binolar qurilish-montaj ishlari olib borilmoqda.

Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan 51 turdagi test sinovlari o‘tkazilib, test topshiriqlari havfsizligini ta’minlash, test sinovlari shaffofligini ta’minlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlar belgilangan.

Test sinovi nazoratchilari uchun maxsus o‘quv dasturi asosida tayyorlanib, Ilmiy-metodik kengashning 2024-yil 14-martdagi 3-son qarori bilan tasdiqlandi. Dasturga korrupsiyaviy holatlar va ularni barataraf etish usullari to‘g‘risidagi mavzular kiritildi, oquv materiallari tayyorlandi. Nazoratchilar uchun otkazilgan o‘quv-seminarlarida 7210 nafar talabgor ishtirok etdi, 3305 nafari bilan shartnomalar imzolandi. Nazoratchilar shartnomalariga korrupsiyaga qarshi bandlar kiritildi.

2024/2025 o‘quv yili uchun abituriyentlarni onlayn ro‘yxatga olish 5-iyun kuni boshlanib, 25-iyun kuni yakunlandi.

Abituriyentlarni ro'yxatga olish Bilim va malakalarni baholash agentligining my.uzbmb.uz sayti va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz sayti) orqali onlayn tarzda amalga oshirildi.

Asosiy test sinovlarini o'tkazish uchun 73 ta katta sig'imli bino tayyorlanmoqda. Bunda 1 smenada 1 168 ta guruhda 35 040 nafar, 1 kunda (2 smenada) esa 2 336 ta guruhda 70 080 nafar abituriyent test sinovida ishtirok etishi ko'zda tutilmoqda.

Test sinovlarini adolatlilik, shaffofligini to'liq ta'minalash maqsadida agentlikning tegishli mas'ul xodimlari yopiq rejim tizimiga o'tkazildi.

Inson omilini kamaytirish maqsadida test sinovlarini sun'iy intellektdan keng foydalangan holda onlayn rejimda tashkil etishni yo'lga qo'yish bo'yicha ishlar boshlandi.

Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish test sinovlarini inson omili aralashuviz "Online test" dasturida o'tkazish yo'lga qo'yildi. Bunda, test sinovi natijasi test sinovi tugashi bilan taqdim etiladi. Test sinovi jarayoni bevosita kompyuter qurilmasi hamda videokuzatuv kameralari yordamida nazorat qilib borilmoqda.

Xorijiy davlatda ta'lim olganlik haqidagi hujjatlari tan olingan talabgorlarning elektron reyestri shakllantirilib, ular haqidagi ma'lumotlar tegishli dasturiy tizimlar (my.argos.uz, diplom.edu.uz, my.mehnat.uz)da aks etishi uchun maxsus elektron dasturga kiritildi.

Shuningdek, chet tilini bilish va egallash darajasini baholash CEFR imtihonlarida gapirish ko'nikmasini baholash ishlari sun'iy intellektdan keng foydalangan holda tashkil etilmoqda.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2021-yil 18-oktyabrdagi 01-07/6859-son xatiga muvofiq BMT Texnik Dasturining "O'zbekistonda samarali, hisob beruvchi va shaffof boshqaruv institutlari orqali korrupsiyaga qarshi kurashish" loyihasi bilan birgalikda ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi standartlardan kelib chiqib, tashkilotda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etuvchi hujjatlar to'plami ishlab chiqildi va ushbu hujjatlar to'plamiga quyidagilar kiritildi:

"Bilim va malakalarni baholash agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati";

"Bilim va malakalarni baholash agentligida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti";

“Bilim va malakalarni baholash agentligida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha nizom”;

“Bilim va malakalarni baholash agentligiga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti”;

“Bilim va malakalarni baholash agentligi xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnoma”;

“Bilim va malakalarni baholash agentligida kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma”;

“Bilim va malakalarni baholash agentligiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma”;

“Bilim va malakalarni baholash agentligida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyati”;

“Bilim va malakalarni baholash agentligida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha nizom”;

“Bilim va malakalarni baholash agentligi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha reglament”.

Mazkur hujjatlar Bilim va malakalarni baholash agentligi direktorining 2023-yil 19-iyundagi 01-328-son buyrug‘i bilan tasdiqlanib, amaliyotga joriy etildi.

Mazkur buyruq asosida Bilim va malakalarni baholash agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati mazmun-mohiyati, ichki hujjatlar bilan barcha xodimlar tanishtirildi.

Bilim va malakalarni baholash agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati, Bilim va malakalarni baholash agentligida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha nizom, Bilim va malakalarni baholash agentligiga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti, Bilim va malakalarni baholash agentligi xodimlari odob-axloqining qoidalari, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” Bilim va malakalarni baholash agentligi rasmiy veb-saytiga joylashtirildi.

Barcha xodimlar Bilim va malakalarni baholash agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati bilan imzo qo‘ydirilgan holda tanishtirilgan.

Yangi ishga qabul qilinayotgan har bir xodimni Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis tomonidan tanishtirish yo‘lga qo‘yildi.

III. Xavf-xatarlarni baholash

Bilim va malakalarni baholash agentligining funksiya va vazifalari alohida hukumat qarori bilan tasdiqlanmagani bois, agentlikning muvaqqat nizomi asosida tegishli funksiyalar bo'yicha korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlari amalga oshirildi.

Shu maqsadda, 2024-yil uchun Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlarini tashkil etish bo'yicha ishchi guruhi Bilim va malakalarni baholash agentligi direktorining 2024-yil 27-fevraldagi 01-132-son buyrug'i bilan tasdiqlandi.

Bilim va malakalarni baholash agentligi funksiyalarning korrupsiyaviy xavf-xatarlarga moyilligini aniqlash hamda baholash nuqtai nazaridan Adliya vazirligida 2022-yil 31-avgustda 3383-son raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubi"ga muvofiq tahlil qilindi hamda baholashdan o'tkazildi.

Maxsus platformaga kiritilgan ma'lumotlar qayta ko'rib chiqilganda, jami 46 ta funksiyalardan korrupsiyaviy xavf-xatarlar 16 ta funksiyada "o'rta" va 30 tasida "past" darajada baholanib, aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi.

Baholash ishlari yakunlari "E-anticor.uz" elektron platformasiga joylashtirilib, Bilim va malakalarni baholash agentligining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga 2024-yilning 17-may sanasida taqdim etildi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar profilaktikasiga qaratilgan Bilim va malakalarni baholash agentligining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha joriy yilga mo'ljallangan Yo'l xaritasi Bilim va malakalarni baholash agentligi direktorining 2024-yil 22-yanvardagi 01-54-son buyrug'i bilan tasdiqlangan.

IV. Amalga oshirilgan korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish

Bilim va malakalarni baholash agentligining 2023-yil 19-iyundagi 01-328-son buyrug'i bilan tasdiqlangan. Bilim va malakalarni baholash agentligida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizom asosida 2024-yilda 114 nafar, jumladan, 109 nafar faoliyat yuritayotgan xodimlarning manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risidagi yillik deklarasiyalari, 2 nafar yangi ishga qabul qilinayotgan va 3 nafar yangi lavozimga o'tkazilgan xodimlarning manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalari tahlil qilindi.

Deklarasiya tahlili bo'yicha manfaatlar to'qnashuvi aniqlanmadi, rasmiy xulosalar Bilim va malakalarni baholash agentligi rahbariga, rasmiy ma'lumot Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim etildi.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni tashkilot shartnomalariga kiritish

Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan xizmat ko'rsatish (test sinovlarini o'tkazish) bo'yicha xo'jalik subyektlari bo'yicha 38 ta shartnoma tuzilgan bo'lib, barchasiga korrupsiyaga korrupsiyaga qarshi qoidalar kiritilgan.

Bilim va malakalarni baholash agentligining barcha xodimlari bilan mehnat shartnomalariga qo'shimcha kelishuvlar tuzilib, ularga korrupsiyaga qarshi bandlar kiritilgan. Shuningdek, 2024-yilda ishga kirgan 4 nafar xodimning mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi bandlar kiritildi.

Kontragentlarni tekshirish

Bilim va malakalarni baholash agentligi direktorining 2023-yil 19-iyundagi 01-328-son buyrug'i asosida Bilim va malakalarni baholash agentligida kontragentlarni tekshirish bo'yicha ishchi guruhi shakllantirildi va vazifalari belgilandi. Bugungi kunda davlat xaridlari doirasidagi shartnoma tuzishga kirishayotgan kontragentlar bo'yicha xulosalar shakllantirilmoqda.

Ishga tavsiya etilgan nomzodlarni tekshirish

Bilim va malakalarni baholash agentligida kadrlar tanlovi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan kelishilgan holda tasdiqlangan "Bilim va malakalarni baholash agentligi markaziy apparati, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi bo'limlari, tizim tashkilotlaridagi vakant lavozimlarga ishga qabul qilish, xodimlarni boshqa lavozimga o'tkazishda tanlov asosida saralab olish to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshirib kelinmoqda.

Hisobot davrida 8 ta lavozimga tanlov o'tkazilib, ularda ishtirok etish uchun 444 nafar nomzod ro'yxatdan o'tdi. Ulardan 72 nafari test sinovlarida qatnashdi, Tanlov komissiyasi tomonidan 45 nafar nomzod bilan suhbat o'tkazilib, suhbat natijalariga asosan 8 nafar nomzod tegishli lavozimlarga tavsiya etildi.

Test sinovlari va suhbat jarayonlari internet tarmog'i orqali to'g'ridan-to'g'ri namoyish etilib, natijalar shu kunning o'zida e'lon qilib borilmoqda.

1. <https://www.youtube.com/watch?v=HXTkmhUw7Ow&t=834s>
2. <https://www.youtube.com/watch?v=qeaMXFwApjQ&t=12s>
3. <https://www.youtube.com/watch?v=KA-NQfRHaC4>
4. <https://www.youtube.com/watch?v=QtTp9v-wq8U&t=3s>
5. <https://www.youtube.com/watch?v=-AMAS6vL0Y>
6. <https://www.youtube.com/watch?v=ayrTc-oMj24>
7. https://www.youtube.com/watch?v=YXRmr_B7MuM
8. https://www.youtube.com/watch?v=USTe3_vwh0k

Ishga olishga tavsiya nomzodlar belgilangan tartibda tekshiruvdan o'tkazilib, tekshiruv reyestriga kiritilgan.

Hozirgi kunda mavjud 1 ta vakant lavozimga tanlov o'tkazishga tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. ARGOS tizimi orqali (<https://vacancy.argos.uz/vacancies/vacancy-list?organization=4055>) va Bilim va malakalarni baholash agentligi saytida (<https://uzbmb.uz/page/vakant>) vakant o'rinlarga tanlov e'lon qilingan.

V.Ta'lim va kommunikasiya

Bilim va malakalarni baholash agentligi xodimlari uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura akademiyasi tomonidan "Korrupsiyaga qarshi kurashishning umumiy asoslari" mavzusida 10 soatlik o'quv kurslari tashkil etildi. Bilim va malakalarni baholash agentligining 99 nafar xodimi (87%) mazkur o'quv kursini muvaffaqiyatli yakunlab, Bosh prokuratura akademiyasining tegishli sertifikatiga ega bo'lgan.

Keyingi hisobot davrida qolgan 15 nafar xodim oqishini tashkil etish ishlarini Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan kelishuvdan otkazilmoqda.

2024-yil 1-mart kuni Bilimni baholash agentligida "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va jinoyatlarning yoshlar kelajagiga ta'sir qiluvchi salbiy oqibatlari" mavzusida seminar va ochiq muloqot tashkil etildi. Tadbirda Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy ta'lim markazi boshlig'i Xudoyberdi Tursunmetov ta'lim tizimida kuzatilayotgan korrupsiya holatlari va ularning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'ruzasi bilan ishtirok etdi.

Ochiq muloqot shaklida o'tgan tadbirda mamlakatimizda keyingi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish borasida amalga oshirilayotgan tizimli ishlar, shu jumladan korrupsiyani oldini olishga qaratilgan preventiv choralar, sohaga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati, mazkur yo'nalishda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini mamlakatimizda ham joriy etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tildi.

Tadbir so'ngida Bilimni baholash agentligi va Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan agentlik xodimlarida korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan o'quv kurslarini muntazam o'tkazib borish bo'yicha o'zaro hamkorlik qilishga kelishib olindi.

Bilim va malakalarni baholash agentligida 2024-yil 4-aprel kuni "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da

amalga oshirishga oid davlat dasturi”da belgilangan vazifalar doirasida Agentlik xodimlari, jumladan, yosh xodimlar uchun seminar-trening tashkil etildi.

Seminar-treningda kiberxavfsizlik, kiberjinoyatchilik va kiberfiribgarlik masalalari muhokama qilindi. Unda “Kiberxavfsizlik markazi” mutaxassisi A.Valiulin ishtirok etib, agentlik xodimlariga kiberxavfsizlik sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, yangiliklar haqida ma’lumot berdi. Shuningdek, bugun tobora raqamlashib borayotgan dunyoda kiberfiribgarlardan ehtiyot bo’lishda nimalarga e’tibor qaratish borasida tavsiyalarini keltirib o’tdi.

2024-yil 29-may kuni Bilim va malakalarni baholash agentligi xodimlari uchun diniy oqimlar, zararli g’oyalarga va korrupsiyaga qarshi kurashish, ular ongida mafkuraviy immunitetini, korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi. Mazkur tadbirda O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori Saidafzal Saidjalolov o’z ma’ruzasi bilan ishtirok etdi.

VI. Korrupciyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to’risidagi xabarlar

Bilim va malakalarni baholash agentligi faoliyati bilan bog’liq korrupsiya holatlari bo’yicha xabarlarni qabul qilish uchun quyidagi aloqa kanallari yo’lga qo’yilgan:

Ishonch telefoni: +998 (95) 199-19-14

Bilim va malakalarni baholash agentligi veb-sayti Xolis fuqaro sahifasi: uzbmb.uz/page/reception

Elektron pochta: antikor@uzbmb.uz

Telegramm kanali: [@bba_antikor_bot](https://t.me/bba_antikor_bot)

Korrupsiya xabarlarini qabul qiluvchi aloqa kanallari haqidagi xabarlar Bilim va malakalarni baholash agentligining rasmiy veb-saytida (https://uzbmb.uz/page/corr_doc) e’lon qilingan.

Bilim va malakalarni baholash agentligining korrupsiya haqida xabar berishga mo’ljallangan aloqa kanallari va boshqa kanallar orqali 2024-yilning hisobot davrida 36 ta murojaat kelib tushgan, ulardan 34 tasi ma’lumot olish mazmunidagi xabarlar, 2 tasi fuqaro murojaati.

Mazkur 2 ta murojaatdagi ma’lumot tekshirildi, ya’ni Toshkent shahrida chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlash bo’yicha xorijiy tashkilot tomonidan o’tkaziladigan TOEFL iBT imtihonida korrupsiya holatlariga olib keluvchi omillar o’rganildi. O’rganish natijalari murojaatchiga ma’lum qilinib, murojaatda Bilim va malakalarni baholash agentligi faoliyatiga aloqador bo’lmagan korrupsiyaga oid

xabar mavjudligi sababli korrupsiyayaga qarshi kurashish bo'yicha vakolatli organga murojaat qilinishi maqsadga muvofiqligi tushuntirildi.

Qolgan murojaatlar bo'yicha fuqarolarga tegishli tuzilmalar tomonidan zarur ma'lumotlar taqdim etildi.

Korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlardan kelib chiqib korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha quyidagi choralar ko'rildi.

- chet tilini bilish darajasini aniqlash test sinovlarida xavfsizlik choralari kuchaytirildi, test sinovi nazoratchilarda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha o'quvlar tashkil etildi, imtihonda inson omilini qisqartirish choralari belgilandi;

- xorijiy baholash tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan chet tillarini bilish va egallash darajasini baholash bo'yicha sertifikatlarni haqiqiyligini tekshirish muntazam amalga oshirilmoqda.

VII. Monitoring va nazorat

Bilim va malakalarni baholash agentligi Test materiallarni shakllantiri va chop etish bo'limi faoliyatini umumta'lim fanlarini bilish va egallash darajasini baholash milliy test sinovlarini materiallarini tayyorlash va chop etish ishlari yopiq rejimda tashkil etildi. Mazkur jarayonda korrupsiyaviy xatarlarlar to'liq bartaraf etildi.

Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish hamda ta'lim va fan sohasiga oid hujjatlarga apostil qo'yish bilan bog'liq jarayonlar 2023-yilning mart oyidan boshlab Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 228-moddasida hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish bo'yicha javobgarlik belgilangan. Shunga ko'ra hujjatlarni qalbakilashtirish holatlari boyicha materiallar Jinoyat kodeksining 241-moddasiga muvofiq Ozbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga o'rganish va tegishli choralarni ko'rish uchun yuborildi.

VIII. Xulosalar

Hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tartib-taomillar ijrosi doirasida erishilgan natijalar:

- Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlarini tashkil etish bo'yicha ishchi guruhi tuzilib, Bilim va malakalarni baholash agentligining Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tayyorlandi. Mazkur hujjat Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining E-antikor.uz electron platformasiga joylashtirildi;

- Bilim va malakalarni baholash agentligida korrupsiyaviy xavf-xatarlarlar baholanib, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan Yo'l xaritasi tasdiqlandi;

- Bilim va malakalarni baholash agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarida belgilangan tadbirlar ijrosi ta'minlandi;

- Bilim va malakalarni baholash agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati, Bilim va malakalarni baholash agentligida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizom, Bilim va malakalarni baholash agentligiga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti, Bilim va malakalarni baholash agentligi xodimlari odob-ahloqining qoidalari, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan Yo'l xaritasi Bilim va malakalarni baholash agentligi rasmiy veb-saytiga joylashtirildi;

- Bilim va malakalarni baholash agentligida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizom asosida 2024-yilda 114 nafar, jumladan, 109 nafar faoliyat yuritayotgan xodimlarning manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risidagi yillik deklarasiyalari, 2 nafar yangi ishga qabul qilinayotgan va 3 nafar yangi lavozimga o'tkazilgan xodimlarning manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalari tahlil qilindi. Deklaratsiyalar tahlili bo'yicha manfaatlar to'nashuvi aniqlanmadi, rasmiy xulosalar Bilim va malakalarni baholash agentligi rahbariga, rasmiy ma'lumot Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim etildi;

- Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan xizmat ko'rsatish bo'yicha xo'jalik sub'yektlari bo'yicha 38 ta shartnoma tuzilgan bo'lib, barchasiga korrupsiyaga korrupsiyaga qarshi qoidalar kiritilgan. Bilim va malakalarni baholash agentligining barcha xodimlari bilan mehnat shartnomalariga, korrupsiyaga qarshi shartlar qayd etilgan, qo'shimcha kelishuvlar tuzilgan. Yangi ishga kirgan 4 nafar xodimning mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi bandlar kiritildi;

- vakant lavozimga tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'lonlar ARGOS tizimi orqali va rasmiy veb-saytida e'lon qilindi. Tanlov jarayonlari internet tarmog'i orqali real vaqt rejimida translyasiya qilindi. Ishga olishga tavsiya etilgan nomzodlar belgilangan tartibda tekshiruvdan o'tkazildi;

- Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan hamkorlikda "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va jinoyatlarning yoshlar kelajagiga ta'sir qiluvchi salbiy oqibatlar" mavzusida seminar va ochiq muloqot tashkil etildi;

- "Kiberxavfsizlik markazi" bilan hamkorlikda raqamlashib borayotgan dunyoda kiberfiribgarlardan ehtiyot bo'lishda nimalarga e'tibor qaratish borasida seminar tashkil etildi;

- Bilim va malakalarni baholash agentligi xodimlari uchun diniy oqimlar, zararli g'oyalarga va korrupsiyaga qarshi kurashish, ular ongida mafkuraviy immunitetini, korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi;

- korrupsiya holatlari bo'yicha xabarlarini qabul qilish uchun aloqa kanallari yoritilgan bannerlar yangilandi, hisobot davrida 36 ta murojaat kelib tushgan, ulardan 34 tasi ma'lumot olish mazmunidagi xabarlar tegishli tuzilmalarga yo'naltirilib, zarur ma'lumotlar taqdim etilgan, 2 ta fuqaro murojaati ko'rib chiqilgan;

- Bilim va malakalarni baholash sho'balari tomonidan korrupsiya va boshqa suiste'molchiliklarga oid qonun buzilishi holatlarini oldini olish bo'yicha o'quv profilaktik ishlarni olib borilishi, bu bo'yicha ochiqlikni ta'minlab keng jamoatchilikka ma'lum qilish maqsadida 2024-yilning I yarim yilligida respublika bo'yicha 300 ta (2023-yilning shu davrida 245 ta) uchrashuv o'tkazilib, 51896 nafar (29530 nafar) fuqarolarga ta'lim muassasalariga qabul jarayonidagi yangiliklar, shaffoflik va adolatni ta'minlash borasidagi ishlar, korrupsiya oqibatlari to'g'risida tushunchalar berildi. Tadbirlarda Adliya boshqarmalari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va mahalla faollari ishtirok etdilar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ommaviy-axborot vositalarida 275 ta (2023-yilning shu davrida 207 ta) chiqishlar va maqolalar e'lon qilindi.

IX. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Keyingi hisobot davrida tashkilot tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining alohida ko'rsatkichlarni yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlar:

1. Korrupsiyaga qarshi quyidagi tadbirlar ijrosini ta'minlash:

- Tashkilot xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil etish bo'yicha tegishli tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish;

- Xodimlarni korrupsiyaga qarshi tartib-taomillardan xabardorligini tahlil qilish va tanlov asosida xodimlarning bilimini baholash.

2. O'zbekiston Respublikasi davlat oliy ta'lim muassasalariga 2024/2025-o'quv yili uchun o'qishga qabul qilish bo'yicha test sinovlarini ochiq va shaffof o'tkazilishini ta'minlash.

3. O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul jarayonida korrupsiya holatlari bo'yicha murojaatlarni tahlil qilish, klassifikatsiyalash, korrupsiyaviy risklarni qayta baholash, chora-tadbirlarni belgilash, zarur hollarda hujjatlarni huquqni muhofaza qilish organlariga topshirish.

Takliflar:

1. Kontragentlarni tekshirish bo'yicha uslubiyotda ko'rsatilgan Insofsiz ijrochilar reyestri (<http://xarid.uz/unfairexecutor>) ishchi holatda emas, Iqtisodiy, ma'muriy, jinoiy va fuqarolik sudlarning sud hujjatlari (<https://public.sud.uz/#!/sign/view>) saytidan biror ma'lumotni topish imkonsiz, chunki saytda tashkilotning INN raqami bilan izlash funksiyasi yo'q.
2. Bugungi kunda Davlat xaridlari doirasidagi Eng yaxshi takliflarni tanlov jarayonlari Moliya vazirligi elektron platformasi orqali amalga oshirilmoqda. Yakunda taqdim etilayotgan shartnomalarda korrupsiyaga qarshi shartlar mavjud emas va shartnomalar rus tilida. Shu bois, Moliya vazirligiga bu borada alohida topshiriq berilishi maqsadga muvofiq.
3. Davlat xaridlari jarayonida manfaatlar to'qnashuvini baholash bo'yicha alohida elektron platforma tashkil etilishi taklif etiladi.
4. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan idora va tashkilotlar xodimlarni korrupsiyaga qarshi o'qitish ishlarini tashkil etish va korrupsiyaga qarshi tartib-taomillardan xabardorligini tahlil qilish bo'yicha o'quv materiallari va test topshiriqlari o'rin olgan o'quv platformasini tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

**Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat
tizimiga mas'ul**



B.G'aniyev